

**TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

Roziqov Behzod Bahrom o‘g‘li

*Fan va texnologiyalar universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid [0009-0009-7693-3288]

Avazov Obid Maxamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mazmuni va bank tizimi rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari, samaradorlikni oshirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda bank faoliyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash orqali banklar faoliyatining samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda bank xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, bank faoliyati samaradorligi, bank tizimi, moliyaviy barqarorlik, bank xizmatlari, raqamli bank xizmatlari, bank risklari, bank boshqaruvi, bank faoliyatini baholash, bank innovatsiyalari*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

Розиков Бехзод Бахром угли

*Университет науки и технологий, доцент кафедры «Экономики», доктор
философии по экономическим наукам (PhD)*

*Ташкентский государственный экономический университет, независимый
соискатель*

Авазов Обид Махаматович

*Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического
университета*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы повышения эффективности деятельности коммерческих банков, её экономическая сущность и значение в развитии банковской системы. В исследовании рассмотрены основные критерии оценки эффективности деятельности коммерческих банков, внутренние и внешние факторы, влияющие на повышение эффективности, а также*

современные подходы к управлению банковской деятельностью. Кроме того, научно обоснованы пути повышения эффективности деятельности банков посредством расширения спектра банковских услуг, внедрения цифровых технологий, совершенствования системы управления рисками и обеспечения финансовой устойчивости. Результаты исследования направлены на дальнейшее развитие деятельности коммерческих банков, повышение их конкурентоспособности и улучшение качества банковских услуг.

Ключевые слова: коммерческие банки, эффективность банковской деятельности, банковская система, финансовая устойчивость, банковские услуги, цифровые банковские услуги, банковские риски, управление банком, оценка банковской деятельности, банковские инновации.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANK ACTIVITIES

Rozikov Bekhzod Bakhrom ugli

University of science and technologies, associate professor of the department «Economics», doctor of philosophy in economical sciences (PhD)

Avazov Obit Makhamatovich

Independent researcher of Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations for improving the efficiency of commercial bank activities, its economic essence, and its significance in the development of the banking system. The study examines the main criteria for evaluating the efficiency of commercial banks, the internal and external factors affecting efficiency improvement, as well as modern approaches to bank management. In addition, the paper scientifically substantiates ways to increase the efficiency of bank activities through expanding the range of banking services, introducing digital technologies, improving the risk management system, and ensuring financial stability. The results of the research contribute to the further development of commercial banks, enhancement of their competitiveness, and improvement of the quality of banking services.*

Keywords: *commercial banks, banking efficiency, banking system, financial stability, banking services, digital banking services, banking risks, bank management, evaluation of banking activities, banking innovations*

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiyotda yuz berayotgan integratsiya jarayonlari, moliyaviy bozorlarning chuqurlashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatining samaradorligini oshirishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi pul oqimlarini samarali taqsimlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli tijorat banklari

faoliyati samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari sifatini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini isloh qilish, tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish va ularning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bank tizimini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratib, quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Bank tizimini tubdan isloh qilish, moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshirish – iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir”. [1] Shuningdek, davlat rahbari bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish zarurligini qayd etib, “Banklar iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim institut hisoblanadi” deb ta‘kidlagan. [2]

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, bank tizimini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiyot nazariyasi va bank menejmenti sohasidagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali faoliyati mamlakat iqtisodiy o‘sishi, investitsiya jarayonlarining faollashuvi hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash, unga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash hamda samaradorlikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.

Shu bois, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilg‘or nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlarni umumlashtirish hamda ularning amaliy ahamiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Almanza, J Rodriguezlar, «samaradorlikdagi tafovutlarni asoslash uchun yirik banklar katta kredit va bozor xatarlarini qabul qilish bilan tavsiflanadi, kichik banklar esa ko‘proq mablag‘ manbai sifatida o‘z mablag‘lariga ko‘proq e‘tibor berishadi» deya ta‘kidlashadi.[3] A.Alhassan, M.Tettehlarning fikricha, «bank faoliyati samaradorligi va ko‘lami o‘rtasidagi chiziqli bo‘lmagan munosabatlarni tavsiflashadi: xususan, ijobiy munosabatlar faqat aktivlarning ma‘lum hajmigacha kuzatiladi, shundan so‘ng samaradorlik pasayadi». [4]

M.Mamonov, A. Vernikovlar «stoxastik chegara usuli yordamida tijorat banklarining samaradorligini o‘rganib chiqishgan. Mualliflar yirik davlat banklarining xususiy va xorijiy banklarga nisbatan samaradorligini, shuningdek, kreditlash bozorida Lerner indeksi bilan

o'lchanadigan banklarning samaradorligi va bozor kuchi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlaganlar».[5]

V.Belousova, A.Karminsky, N.Myachin, I.Kozyrlar «xorijiy va davlat banklari katta samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. Uning tadqiqotlari, shuningdek, ixtisoslashuv (aktivlar va jalb qilingan mablag'lar tarkibi) va tavakkalchilikka moyillik (kredit xavfi ko'rsatkichlari, likvidlik va ochiq valyuta pozitsiyasi) kabi omillarni hisobga olgan».[6]

S. Moudud - Ul - Huq esa, «BRIKSga a'zo mamlakatlarda, shu jumladan Rossiyada tijorat banklarining samaradorligiga kapitalning etarligi talablarining kuchayishi ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan».[7]

E.Osuagwu, W.Isola, I.Nwaogwugwularning tadqiqotlarida, «bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati uning yuqori tartibga solinishi bo'lib qolmoqda, bu to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy bozorlarning barqarorligini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Tartibga solishning milliy xususiyatlari tijorat banklari samaradorligidagi farqlarni belgilashligi keltirib o'tilgan».[8]

G,Li Yang, N.Noor, M.Bakri, W.Yusof, N.Noor, N.Zainal esa «bank tizimlarining qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqotlar bankni tartibga solish va nazoratning kuchayishi kredit tashkilotlarining faoliyat ko'lamidan qat'i nazar, ularning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi» [9] deya fikr bildirishganlar.

Yuqorida keltirilga fikrlarga Z.Zhou va boshqalarning tadqiqotlarida qarama-qarshi xulosalar keltirilgan, «unga ko'ra, tartibga solishni liberallashtirishni o'z ichiga olgan moliyaviy islohotlar tijorat banklari samaradorligini oshirishga yordam bermaydi» deb ta'kidlab o'tganlar. Boshqa tomondan, «ba'zi tadqiqotlar raqobatning tijorat banklari samaradorligiga ijobiy ta'sirini birinchi navbatda operatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali ko'rsatadi»,[10] deya fikr bildirishganlar.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyati samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular qatoriga banklar hajmi, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish darajasi, raqobat muhiti hamda bank faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi kiradi. Ayrim tadqiqotlarda bank tizimida tartibga solish va kapital talablari samaradorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan bo'lsa, boshqa ilmiy ishlarda esa moliyaviy liberallashtirishning samaradorlikka ta'siri turlicha talqin qilinadi. Umuman olganda, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bank boshqaruvini takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyati samaradorligiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, bank tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu metodologik yondashuvlar tijorat banklari faoliyati

samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning nazariy jihatlarini asoslash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tijorat banklari moliya tizimining muhim instituti sifatida iqtisodiyotda pul mablag‘larini samarali taqsimlash, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish hamda iqtisodiy subyektlar o‘rtasida moliyaviy vositachilikni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Bank faoliyati samaradorligi bank resurslaridan foydalanish darajasi, bank xizmatlari sifati, daromadlilik ko‘rsatkichlari hamda risklarni boshqarish tizimi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda bank faoliyati samaradorligi odatda moliyaviy natijalar va resurslardan foydalanish darajasi orqali baholanadi. Xususan, banklar faoliyatining samaradorligini aniqlashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi, operatsion xarajatlar va daromadlar nisbati kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar banklarning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va boshqaruv samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillarga bank boshqaruvining samaradorligi, kredit portfeli sifati, bank resurslarining tuzilmasi, operatsion xarajatlar darajasi hamda bank xizmatlari diversifikatsiyasi kiradi. Tashqi omillarga esa makroiqtisodiy muhit, bank tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi, moliya bozoridagi raqobat darajasi hamda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

Tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar⁶

Omillar guruhi	Omillar	Qisqacha tavsif
Ichki omillar	Bank boshqaruvi samaradorligi	Bank strategiyasi, boshqaruv tizimi va menejment qarorlarining sifat darajasi bank faoliyati samaradorligini belgilaydi.
	Kredit portfeli sifati	Muammoli kreditlar ulushining pastligi va kredit risklarini samarali boshqarish bank daromadlilikini oshiradi.
	Operatsion xarajatlar darajasi	Xarajatlarni optimallashtirish bank foydasini oshirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.
	Bank xizmatlari diversifikatsiyasi	Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish bank daromad manbalarini kengaytiradi.
	Raqamli bank texnologiyalari	Mobil bank, internet banking va fintech yechimlari bank operatsiyalarining tezligi va samaradorligini oshiradi.

⁶ Muallif ishlanmasi

Tashqi omillar	Makroiqtisodiy muhit	Inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va moliya bozorida barqarorlik bank faoliyatiga bevosita ta‘sir qiladi.
	Bank tizimini tartibga solish	Markaziy bank siyosati, kapital yetarliligi talablari va prudensial me‘yorlar bank faoliyati barqarorligini ta‘minlaydi.
	Raqobat muhiti	Banklar o‘rtasidagi raqobat bank xizmatlari sifatini oshirish va innovatsiyalarni joriy etishga turtki beradi.
	Moliyaviy bozorlarning rivojlanishi	Kapital bozori, kredit bozori va to‘lov tizimlarining rivojlanishi bank faoliyati samaradorligini oshiradi.
	Innovatsion texnologiyalar rivoji	Fintech, sun‘iy intellekt va raqamli moliya xizmatlari bank xizmatlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Zamonaviy bank tizimi sharoitida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank operatsiyalarining tezligi va qulayligini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi hamda mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, fintech texnologiyalari bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda risklarni samarali boshqarish tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bank faoliyatida kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklar muhim o‘rin tutadi. Ushbu risklarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash hamda bank aktivlari sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shu sababli banklarda zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, mijozlarga yo‘naltirilgan bank xizmatlarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda banklar tomonidan taklif etilayotgan yangi moliyaviy mahsulotlar, elektron to‘lov tizimlari, mobil bank xizmatlari hamda masofaviy bank xizmatlari bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytiradi va banklarning daromadlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish jarayonida bir qator moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar banklarning moliyaviy barqarorligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda boshqaruv samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar keng qo‘llaniladi:

1. Aktivlar rentabelligi (ROA – Return on Assets) – bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi.

$$ROA = \text{Sof foyda} \mid \text{Jami aktivlar} \times 100$$

2. Kapital rentabelligi (ROE – Return on Equity) – bank kapitalidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

$$ROE = \text{Sof foyda} \mid \text{O‘z kapitali} \times 100$$

3. Sof foiz marjasi (Net Interest Margin – NIM) – foizli daromadlar va foizli xarajatlar o‘rtasidagi farqni aks ettiradi hamda bankning asosiy operatsion faoliyati samaradorligini baholaydi.

$$NIM = \text{Foizli daromadlar} - \text{Foizli xarajatlar} \mid \text{Foyda keltiruvchi aktivlar} \times 100$$

4. Xarajatlar va daromadlar nisbati (Cost-to-Income Ratio – CIR) – bankning operatsion samaradorligini tavsiflaydi.

$$CIR = \text{Operatsion xarajatlar} \mid \text{Operatsion daromadlar} \times 100$$

5. Kapital yetarliligi koeffitsiyenti (Capital Adequacy Ratio – CAR) – bankning moliyaviy barqarorligini va risklarni qoplash qobiliyatini baholaydi.

$$CAR = \text{Bank kapitali} \mid \text{Riskka tortilgan aktivlar} \times 100$$

6. Likvidlik koeffitsiyentlari – bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

7. Muammoli kreditlar ulushi (NPL – Non-Performing Loans) – kredit portfeli sifatini baholash imkonini beradi.

$$NPL = \text{Muammoli kreditlar} \mid \text{Jami kreditlar} \times 100$$

8. Kredit portfelining o‘rish sur‘ati – bankning kreditlash faoliyati dinamikasini ko‘rsatadi.

Mazkur ko‘rsatkichlar majmuasi tijorat banklari faoliyatining moliyaviy natijalari, risk darajasi va operatsion samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi hamda bank tizimi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

AT “Aloqabank”ning samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili⁷

Ko‘rsatkich	Formula	Natija
Aktivlar rentabelligi (ROA)	Sof foyda / Aktivlar	1,0 %
Kapital rentabelligi (ROE)	Sof foyda / Kapital	6,6 %
Foizli aktivlar ulushi	Foizli aktivlar / Aktivlar	66,4 %

Yuqoridagi jadvalda tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda muhim hisoblangan asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar – aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) hamda foiz daromad keltiruvchi aktivlar ulushi tahlil qilingan. Mazkur ko‘rsatkichlar bank faoliyatining moliyaviy natijalari, resurslardan foydalanish darajasi hamda bank boshqaruvi samaradorligini baholash imkonini beradi.

⁷ AT “Aloqabank”ning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bankning aktivlar rentabelligi (ROA) 1,0 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich bankning mavjud aktivlaridan foyda olish darajasini ifodalaydi. ROA ko'rsatkichining ijobiy qiymatga ega bo'lishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ushbu ko'rsatkichning nisbatan past darajada bo'lishi bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan bank aktivlarini diversifikatsiya qilish, daromad keltiruvchi operatsiyalar ulushini kengaytirish hamda kredit portfeli sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank faoliyati samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri kapital rentabelligi (ROE) bo'lib, jadval ma'lumotlariga ko'ra u 6,6 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich bank kapitalidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi hamda investorlar va aksiyadorlar uchun muhim moliyaviy indikator hisoblanadi. ROE ko'rsatkichining ijobiy darajada bo'lishi bank kapitalidan samarali foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun bank faoliyatida operatsion xarajatlarni optimallashtirish, daromad keltiruvchi operatsiyalarni kengaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, bank faoliyati samaradorligini tavsiflovchi yana bir muhim ko'rsatkich – foiz daromad keltiruvchi aktivlar ulushi bo'lib, tahlil natijalariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 66,4 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich bank aktivlarining qanchalik qismi daromad keltiruvchi operatsiyalarga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Ushbu ulushning nisbatan yuqori darajada bo'lishi bank aktivlari tarkibida kreditlar va boshqa foiz daromad keltiruvchi operatsiyalar muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Bu esa bank daromadlarini shakllantirishda foizli operatsiyalarning asosiy manba hisoblanishini anglatadi.

Umuman olganda, keltirilgan ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatida moliyaviy barqarorlik va daromadlilikning ma'lum darajasi ta'minlangan bo'lsa-da, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish uchun aktivlardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, daromad keltiruvchi operatsiyalar ulushini oshirish hamda bank kapitalidan foydalanish samaradorligini yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi. Bu esa bank boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bank tizimining barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank faoliyati samaradorligi bank resurslaridan oqilona foydalanish, bank xizmatlari sifatini oshirish, daromadlilik ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda risklarni samarali boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar – aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi, operatsion xarajatlar va daromadlar nisbati hamda kapital yetarliligi kabi ko'rsatkichlarning muhimligi asoslab berildi. Ushbu ko'rsatkichlar banklarning moliyaviy barqarorligi, boshqaruv samaradorligi va daromadlilik darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

AT “Aloqabank” misolida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, bankning aktivlar rentabelligi (ROA) 1,0 foizni, kapital rentabelligi (ROE) 6,6 foizni hamda foiz daromad keltiruvchi aktivlar ulushi 66,4 foizni tashkil etgani aniqlangan. Mazkur ko‘rsatkichlar bank faoliyatida daromadlilikning muayyan darajada ta‘minlanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda daromad keltiruvchi operatsiyalar ulushini kengaytirish bank faoliyatining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- banklarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va operatsion xarajatlarni qisqartirish;
- kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish orqali bank aktivlari samaradorligini oshirish;
- bank xizmatlari va moliyaviy mahsulotlar diversifikatsiyasini kengaytirish orqali daromad manbalarini ko‘paytirish;
- banklarda zamonaviy risk-menejment tizimlarini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash;
- bank boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va samarali korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bank boshqaruvini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, risklarni samarali boshqarish hamda bank resurslaridan oqilona foydalanish orqali ta‘minlanadi. Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M., “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M., Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 29 dekabr.
3. Almanza, C., Rodríguez, J. (2018). Profit Efficiency of Banks in Colombia with Undesirable Output: A Directional Distance Function Approach. *Economics: The Open-Access, Open-Assessment E-Journal*, No. 2018–30, 1–18. DOI: 10.5018/economics-ejournal.ja.2018–30
4. Alhassan, A., Tetteh, M. (2016). Non-Interest Income and Bank Efficiency in Ghana: A Two-Stage DEA Bootstrapping Approach. *Journal of African Business*, Vol. 18, No. 1, 124–142. DOI: 10.1080/15228916.2016.1227668.
5. Mamonov, M., Vernikov, A. (2017). Bank ownership and cost efficiency: New empirical evidence from Russia. *Economic Systems*, Vol. 41, No. 2, 305–319. DOI: 10.1016/j.ecosys.2016.08.001.

6. Belousova V., Karminsky A., Myachin N., Kozyr I. (2019). Bank Ownership and Efficiency of Russian Banks. *Emerging Markets Finance and Trade*, 1–18. DOI: 10.1080/1540496x.2019.1668764.
7. Moudud-Ul-Huq, S. (2018). Banks’ capital buffers, risk, and efficiency in emerging economies: are they counter-cyclical? *Eurasian Economic Review*, Vol. 9, No. 4, 467–492. DOI: 10.1007/s40822-018-0121-5.
8. Osuagwu, E., Isola, W., Nwaogwugwu, I. (2018). Measuring Technical Efficiency and Productivity Change in the Nigerian Banking Sector: A Comparison of Non-parametric and Parametric Techniques. *African Development Review*, Vol. 30, No. 4, 490–501. DOI: 10.1111/1467-8268.12357.
9. Yang, G., Li (2019). Role of Bank Regulation on Bank Performance: Evidence from AsiaPacific Commercial Banks. *Journal of Risk and Financial Management*, Vol. 12, No. 3, 131. DOI: 10.3390/jrfm12030131.
10. Zhou, Z., Placca, E., Jin, Q., Liu, W., Wu, S. (2017). Banks efficiency and productivity in Togo after the financial liberalization: a combined Malmquist index approach. *INFOR: Information Systems and Operational Research*, Vol. 56, No. 3, 317–331. DOI: 10.1080/03155986.2017.1337416.